



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 20-mart

138-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 17-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Chotqol” davlat biosfera va “Oqtog‘-Tomdi” davlat qo‘riqxonalarining qo‘riqlanma zonalarini belgilash to‘g‘risida” 2025-yil 5-martdagi 142-son qarori ijrosi haqida”gi 134-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq davlat qo‘riqxonalari hududidagi tabiiy majmualarga xo‘jalik faoliyatining salbiy ta‘sirining oldini olish, noyob hamda yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan o‘simlik va hayvonlarning turlarini saqlab qolish hamda ko‘paytirish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ekologiya, atrof-muhitni muxofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 5-martdagi 142-son qarori va Namangan viloyat hokimining 2025-yil 17-martdagi 134-6-0-Q/25-son qarorini tumanda ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 17-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Chotqol” davlat biosfera va “Oqtog‘-Tomdi” davlat qo‘riqxonalarining qo‘riqlanma zonalarini belgilash to‘g‘risida” 2025-yil 5-martdagi 142-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 134-6-0-Q/25-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi, O‘rmon xo‘jaligi agentligi, Toshkent, Namangan va Navoiy viloyatlari hokimliklarining “Chotqol” davlat biosfera qo‘riqxonasiga tutash 32 859,89 gektar hamda “Oqtog‘-Tomdi” davlat qo‘riqxonasiga tutash 28 500,0 gektar hududda ularning qo‘riqlanma zonalarini belgilash to‘grisidagi taklifi ma‘qullanganligi hisobga olinishi belgilanganligi;

“Chotqol” davlat biosfera qo‘riqxonasining qo‘riqlanma zonasi maydoni 1-ilovaga muvofiq;

“Oqtog‘-Tomdi” davlat qo‘riqxonasining qo‘riqlanma zonasi maydoni 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

qo‘riqxonalarning qo‘riqlanma zonasidagi yerlar ushbu zonalarda joylashgan yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va mulkdorlar ixtiyorida qo‘riqlanma zona rejimiga rioya etish sharti bilan qolashi inobatga olinganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi:

bir oy muddatda “Chotqol” davlat biosfera va “Oqtog‘ Tomdi” davlat qo‘riqxonalarning qo‘riqlanma zonalarini to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlaganligi;

ikki oy muddatda Toshkent, Namangan va Navoiy viloyatlari hokimliklari hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi bilan birgalikda qo‘riqxonalarning belgilanayotgan qo‘riqlanma zonalarini chegeralarini belgilash hamda xaritalarini ishlab chiqish belgilanganligi;

yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va mulkdorlar qo‘riqlanma zonalar hududida joylashgan yer maydonlaridan foydalanishda qo‘riqlanma zona rejimiga rioya etilishi bo‘yicha qonunchilikda belgilangan tartibda doimiy ravishda nazorat ishlarini amalga oshirishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tegishli tuman hokimining o‘rinbosarlari zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi

A.Mansurov

Tuman hokimi



A.Mansurov